

**XALQ HAYOTINING KENG KO'LAMDA TASVIRLOVCHI VOSITALARIDAN  
BIRI BU DOSTONLAR**

**Ahmedova Pokiza Rustamovna**  
**Nukus davlat pedagogika instiuti Turkiy tillar fakulteti talabasi**

**Annotatsiya:** Xalq og'zaki ijodi badiiy adabiyotining eng qadimgi shaklidir. Xalq o'g'izaki ijodi azal- azladan rivojlanib kelingan. O'zbek adabiyotida xalq dostonlari alohida ahamiyat kasb etidi.

**Kalit so'zlar:** Doston turlari, xalq o'g'izaki ijodi, folklor, baxshilar ijodi.

Odamlar badiiy asarlarini dastlab og'zaki shaklda yaratishgan va ular og'izdan- og'izga ko'chib yurgan. Bu asarlar ulkan ta'sir kuchiga ega bo'lganliklari uchun ham xalqning badiiy xotirasi tufayli bizgacha yetib kelgan.

O'zbek folklorida xalq dostonlari alohida o'rinn tutadi. Olimlar XIX asrning XX asrning ikkinchi yarmiga qadar o'zbek baxshilari tomonidan kuylangan yuz eliika yaqin doston borligini aniqlashgan va variantlari bilan qo'shib hisoblaganda, ulardan to'rt yuztacha asar yozib olingan. Folklorchi olimlarning aytishlaricha, birgina "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar yuzdan oshadi, yolg'iz "Alpomish"ning qirqdan ortiq yozib olingan varianti bor.

"Doston" forscha so'z bo'lib, qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif ma'nolarini bildiradi. Favqulodda xususiyatlarga ega qahramonlarning boshidan o'tgan qaltis voqealar she'r va nasriy yo'lda aralash tasvirlangan yirik hajmli, muallifi noma'lum epik asarlar xalq dostonlari deyiladi.

Dostonlar o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. Ularning yaratilishi xalqimizning ma'naviy- maishiy qiyofasi, ijtimoiy- siyosiy kurashlari, axloqiy- estetik qarashlari,adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi ideallari bilan chambarchas bog'liqdir. Dostonlar xalqimizning kelib chiqishi, ularning yashashini, qanchadan- qancha azob- uqubatlarga bardosh qilganligi aks ettiriladi.

Ayni paytda milliy qadriyatlarni, asriy an'analarni yangicha ruh bilan qayta tiklab, hayotga qaytarish ishlari muhim tarbiyaviy omil qilib olindi. Shu maqsadda xalq og'zaki ijodining eng yorqin hamda noyob, sermazmun namunalari, milliy folkloarning asl durdonalari qayta yaraqlab, odamlar qalbini nurafshon eta boshladi.

Ayniqsa, vatanparvarlik va mardlikni, jasurlik hamda jasoratni, tug'ilgan yurtga sadoqat tuyg'ularini tarannum etuvchi "Alpomish" dostoni milliy o'zlikni tiklash borasida olib borilayotgan ma'naviy-tarbiyaviy ishlarda ulug' ahamiyat kasb etdi.

Haqiqatan ham xalqning zukko dahosi bilan yaratilib, millatning ezgu orzu umidlarini, armonlarini, intilishlarini, jasorati va mardligini tom ma'noda o'zida mujassam etgan "Alpomish" dostoni bugungi avlodni vatanparvarlik, millatga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim vositalardan biri bo'lmoqda. Chunki bu dostonda kuylangan xalq qahramoni timsoli yoshlari qalbiga ilhombaxsh nur taratmoqda. Ularning ma'naviyatini boyitishda ibrat namunasi bo'lib xizmat qilmoqda. Biz xalq o'g'izaki ijodimizda nafaqat alpomish dostoni balki ko'plab boshqa dostonlarni ham ko'rsatishimiz mumkin.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Karimov.I.A "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". T..Ma'naviyat 2008.
2. Zunnunov A. Adabiyot o'qitish metodikasi – T.,1997
3. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T., Yangi asr avlod 2006
4. Tursunova M. Adabiyot darslarida sharhlash usuli. "Alpomish" dostoni misolida TAT 1992.
5. <http://www.ziyo.uz>
6. www, ijod , uz